

2025-yil "01" 11.

"Asakatekstil" MCHJning ta'minot zanjiri barqarorligini ta'minlash siyosati**I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Ta'minot zanjiri barqarorligini ta'minlash siyosati (keyingi o'rinlarda Siyosat deb ataladi) **"Asakatekstil"** MCHJ (keyingi o'rinlarda – Jamiyat)ning ichki me'yoriy hujjati hisoblanadi va Jamiyatning strategik maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan xomashyo, mahsulotlar, nomoddiy aktivlar, ishlar va xizmatlar bilan barqaror ta'minlash maqsadida ta'minot zanjirini boshqarishning maqsad, vazifa, tamoyil va usullarini belgilaydi.

2. Mazkur Siyosat xarid faoliyati va ta'minot zanjiriga mas'uliyatli yondashuv bo'yicha asosiy qoidalarini belgilaydi va Jamiyatning barcha bo'limlari va xodimlari bajarilishi majburiy bo'lgan hujjat hisoblanadi. Siyosatda Jamiyatning kontragentlari, ya'ni pudratchi va yetkazib beruvchi kompaniyalariga qo'yilgan talablarni bajarilishini ta'minlash Jamiyat uchun majburiy.

3. Jamiyat ta'minot zanjirlarini barqaror rivojlantirish va yaratish uchun O'zbekiston Respublikasi me'yoriy-huquqiy hujjatlari talablari hamda Xalqaro moliya korporatsiyasining ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash standartlari talablarini hisobga olgan holda ilg'or xalqaro amaliyotlarga asoslanadi.

4. Jamiyat mazkur Siyosatni bir xil qo'llashni ta'minlaydi va uning bajarilishini monitoring qiladi.

5. Jamiyat o'z manfaatdor tomonlarining manfaatlarini o'rganib olib, ularni o'z ta'minot zanjiri barqarorligini ta'minlashda hisobga oladi. Jamiyatning manfaatdor tomonlari qatoriga yetkazib beruvchilar, pudratchi tashkilotlar, hamkor tashkilotlar, iste'molchilar, Jamiyat joylashgan hudud aholisi, Asaka shahri hokimligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Davlat mehnat inspeksiyasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, "O'ztukimachilik sanoat" assotsiatsiyasi, O'zbekiston tovar-xomashyo birjasi va uning hududiy filiallari, kasaba uyushmalari va boshqalar kiradi.

II. Maqsad va vazifalar

6. Siyosatning maqsadlari quyidagilardan iborat. Jamiyatni zarur hajmdagi xomashyo, mahsulotlar, yordamchi materiallar, texnika, butlovchi va ehtiyot qismlari, shuningdek ishlar va xizmatlar bilan sifat, ekologik va ijtimoiy standartlarining talablariga javob bergan holda ta'minlash; Jamiyatning yetkazib berish zanjirida inson huquqlari va atrof-muhit uchun xatarlarning oldini olish va/yoki kamaytirish maqsadida munosib ish, ijtimoiy mas'uliyat, ekologik mas'uliyat kabi tamoyillarini joriy qilish va ta'minlash. Barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan xarid faoliyati va ta'minot zanjirini boshqarish bo'yicha aniq maqsadlar Jamiyat tomonidan har yili belgilab boriladi.

7. Siyosatning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Malakali ekologik va ijtimoiy mas'uliyatli yetkazib beruvchilar bozorini shakllantirish;
- Xaridlar sohasida insofsiz raqobat va boshqa qonunga zid bo'lgan harakatlarning oldini olish;
- Jamiyatning xomashyo, mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning mas'uliyatli-xaridori sifatida ijobiy imidjini yaratish;

- Yetkazib beruvchilar va qiymat zanjiridagi kompaniyalar bilan ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha hamkorlik qilish;
- Yetkazib beruvchilarni tanlashda ekologik, ijtimoiy va boshqa mezonlar bo'yicha shaffoflikni ta'minlash.

III. Asosiy tamoyillar

8. Jamiyatning ta'minot zanjiri barqarorligini ta'minlashning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Poraxo'rlik va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish;
- Raqobat;
- Samaradorlik va natijadorlik;
- Shaffoflik va hisobdorlik;
- Tegishli ehtiyotkorlik;
- Xatarlarni boshqarishga yo'naltirilgan yondashuv;
- Qonuniylik;
- Mehnat va mehnat muhofazasi qonunchiligi hamda Xalqaro moliyaviy korporatsiyasining mehnat va mehnat sharoitlari bo'yicha standart talablariga rioya qilish;
- Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qonunchiligi hamda Xalqaro moliyaviy korporatsiyasining ekologik ta'sirni baholash va boshqarish bo'yicha xalqaro standartlarga rioya qilish;
- Ma'lumotlarning maxfiyligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish.

IV. Siyosatni amalga oshirish choralari

9. Mazkur Siyosatni amalga oshirish uchun Jamiyat quyidagi faoliyatni amalga oshiradi:

- Jamiyatning ta'minot zanjirlaridagi asosiy ekologik, ijtimoiy xatarlarni aniqlaydi, ularni oldini olish va yumshatish choralari ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- Jamiyat faoliyatida O'zbekiston Respublikasining mehnat va mehnat muhofazasi to'g'risida qonunchiligining talablariga rioya qilishni ta'minlaydi;
- Pudratchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalarga pudratchi tashkilotlarning mehnat va mehnat muhofazasi to'g'risida qonunchilikning talablari, shu jumladan majburiy mehnat va bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi talablarga rioya qilish majburiyatlarini belgilaydi;
- Mehnat sohasida kamsitishga yo'l qo'ymaydi;
- Jamiyatda mavsumiy xodimlar huquqlarini O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq ta'minlaydi;
- Jamiyatda gender tenglik sharoitlarini yaratadi;
- Kasaba uyushmalari faoliyati uchun qonuniy sharoitlarni ta'minlaydi;
- Majburiy mehnat va bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaydi;
- Mehnat sohasida ijtimoiy sheriklikni amalga oshiradi;
- Xodimlarning mehnat huquqlarini ta'minlaydi;
- O'zbekiston Respublikasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qonunchiligiga hamda xalqaro Xalqaro Moliyaviy korporatsiyaning ekologik va ijtimoiy barqarorlik standartlari talablariga rioya qiladi;
- Tanlov va tender shartlariga quyidagilarni kiritadi:
 - Yetkazib beruvchilarning xomashyo, texnika, o'g'it va boshqa mahsulotlarining tegishli milliy standartlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash (sertifikatlashtirish);
 - pudratchi tashkilotlarning ish va xizmatlarini ijtimoiy va ekologik mas'uliyat milliy va xalqaro standartlariga muvofiqligini tasdiqlash (sertifikatlashtirish);
 - pudratchi tashkilotlarning korporativ ijtimoiy mas'uliyat, menejment sifati tizimi, ekologik menejment tizimi, mehnat xavfsizligi va sog'liqni saqlash tizimini tegishli xalqaro standartlarga muvofiqligini tasdiqlash (sertifikatlashtirish);

- O'zbekiston Respublikasining mehnat, mehnat muhofazasi, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilik talablariga rioya qilish, shu jumladan majburiy mehnat va bolalar mehnatining yomon shakllariga yo'l qo'ymaslik;
- Yetkazib beruvchi va pudratchi tashkilotlar tomonidan mehnat sohasida me'yoriy-huquqiy talablar, shuningdek majburiy mehnat va bolalar mehnatiga yo'l qo'ymaslik talablariga rioya qilinishi ustidan muntazam va mustaqil monitoring o'tkazadi;
- Pudratchi tashkilotlar tomonidan Jamiyatning mehnat va ekologiya sohasidagi talablariga rioya etilmaslik holatlari aniqlanganda ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli maqsadli chora-tadbirlarni pudratchi tashkilotlar bilan birgalikda amalga oshiradi;
- Yetkazib beruvchi va pudratchi tashkilotlar tomonidan ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi talablar, shuningdek pestitsidlar, boshqa xavfli moddalar, chiqindi va oqova suvlarni boshqarish talablariga rioya qilinishi ustidan muntazam va mustaqil monitoring (audit) o'tkazadi;
- Jamiyatning ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi samaradorligini tahlil qiladi;
- Munosib mehnat, xodimlarning mehnat huquqlarini muhofaza qilish va nazorat qilish mavzulariga bag'ishlangan o'quv dasturlarda ishtirok etadi;
- Siyosatni Jamiyatning rasmiy veb-saytida e'lon qiladi;
- Manfaatdor tomonlarning murojaatlarni qabul qiladi va tegishlilikicha ko'rib chiqadi. Murojaatlar Jamiyatning rasmiy veb-saytidagi murojaatlar shakli <https://asakertextile.uz/contacts/> orqali, Andijon viloyati Asaka shahri To'kimachi ko'chasi, 4-uy manzili bo'yicha hamda +998-99-907-08-80, +998 99-909-02-02 telefon raqami orqali qabul qilinadi.

10. Jamiyat ushbu Siyosatning maqsad va vazifalariga erishish uchun boshqa choralarni ham amalga oshirishi mumkin.